

PALATKADA YOZILGAN DOSTON — DAVRGA YOZILGAN BADIY MUROJAAT

Ahmadjonova Zuhra Farhod qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

zuhraahmadjonova18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning "Palatkada yozilgan doston" she‘riy dostoni 1966-yil Toshkent zilzilasi fonida o‘rganiladi. Fojia oldida milliy ruh va insoniy birlik qanday namoyon bo‘lishi, jamiyatning ikki qiyofasi va yozuvchining badiiy mahorati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Palatka, Toshkent zilzilasi, milliy ruh, birlik, fojia, inson, vijdon

Fojia insonni ko‘rsatadi. Tinch kunlarda kim qanday ekanini bilish qiyin, lekin yer silkingan, uylar qulagan, odamlar ko‘chada qolgan bir kunda inson o‘zini, o‘zligini yashira olmaydi. 1966-yil Toshkent zilzilasi ham ana shunday sinovli kunlardan biri bo‘ldi. Kimdir qo‘rquvdan chetga chiqdi, kimdir o‘zining manfaati bilan band bo‘ldi, kimdir esa xalq bilan birga qolib, vayron bo‘lgan shaharni tiklashga bel bog‘ladi. Ana shu og‘ir kunlarda, odamlar palatkalarda yashayotgan, shahar esa hali o‘ziga kelib ulgurmagan paytda, Erkin Vohidov butun voqelikni insoniylik ko‘zi bilan ko‘rsatuvchi doston yoza boshladi. Ijodkorning o‘zi ham “Bu doston emas, zilzilada ko‘chgan she‘rlar parchasi”, - deb aytadi. Bu kamtarlik emas, balki asarning mohiyatini ochib beruvchi haqiqatdir.

Asar she‘riy mahorat namoyishi uchun yozilmagan, unda qofiya ortidan quvish yoki chiroyli nisbat qidirish yo‘q. Dostondagi “Zudlik kerak edi, kutardi zamon” misralari esa bizga bu zudlik nafaqat vaqtni, balki o‘sha paytda ko‘rgan, his qilgan va qalbida saqlab qolgan voqelikning ta‘sirini ko‘rsatib beradi. Erkin Vohidov shunday fojia sharoitida palatka va vayronalar orasida yashagan insonlarning dardi, mashaqqatlari, shahar tiklanishidagi milliy ruh va birdamlikni balandparvoz so‘zlarsiz kechmishlari orqali so‘zlab berdi. “Bu shoirlik emas, insonlik farzim” - deydi ijodkor. Darhaqiqat, shoirlik - mahorat, insonlik - vijdon amri. Erkin Vohidov o‘sha kuni, o‘sha palatka ichida, chang bosgan daftarga bu asarni yozib, qochganlarni ham, qolganlarni ham, yig‘laganlarni ham, kulganlarni ham hammasini bir joyga to‘pladi. O‘quvchining fojiadan o‘rnak olib, o‘zi xulosa qilishiga imkon yaratdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zilzila insonlarni ikki qismga bo‘ldi. Bir paytlar minbarlarda “jonim xalqimga fido” deb ko‘krak kergan odam Qrimga uchib ketdi, Toshkentni zilziladan so‘ng qayta tiklash, xalqga yordam berish uchun Xarkov, Lugansk va turli hududlardan kelgan

Bizlar besh jon edik,
 O'n bir jon bo'ldik.
 Bir kunda tanishib,
 Jonajon bo'ldik.
 El boshiga nogoh
 Kelgan bu kulfat
 Bir-biriga qildi
 Hammani ulfat.

insonlar esa qo'liga ketmon ushladi. Zilzila nafaqat shahar devorlarini qulatdi, balki odamlarning niyatini ham ochib berdi. Bir tomonda baland minbarlardan gapirgan, ammo sinovda chekinib ketganlar, ikkinchi tomonda esa begona yurtidan kelib, o'zini xalqning dardiga sherik qilganlar.

Butun xalq qo'zg'aldi,
 Ham burch, ham shahar.
 Qishda palatkada
 Qolmas hamshahar.
 Deydilar kulfatda —
 Yurak bo'lsa keng —
 Tor uy ham do'st uchun
 Kech olamga teng.

Bu misralardan ko'rishimiz mumkinki, el boshiga tashvish tushgan lahzada xalqimiz o'z bag'rikengligini, birdamligini namoyon etdi. Besh jon bo'lgan uyga o'n bir kishi to'ldi. Insonlar bir-biriga do'st, jonajon, ulfat bo'ldi. Ba'zi insonlar qo'rquvdan boshqa davlatlarga chiqib ketgan bo'lsa-da, Erkin Vohidov o'sha davrda ham millatimizning, xalqimizning yakdilligini, mehmondo'st, mehnatsevar insonlar orqali o'quvchiga yetkazib bera oldi. Asar davomini o'qir ekanmiz, ukrainalik Baxrixondan g'urur tuyamiz, kelinchakning taqdiriga beixtiyor achinib, "Tank-34" bilan tarixni esga olamiz. Jajji Dilorom esa o'zining atlas ko'ylakka yig'gan puli bilan ko'nglimizdan chuqur joy oladi.

Dostoning ta'siri adabiy doiradan chiqib, jamiyatning axloqiy ongiga singib ketgan. Biz, O'zbek oilalarida, "kulfatda do'stni taniysan" degan hikmat bor. Erkin Vohidov bu hikmatni falsafiy mulohaza sifatida emas, balki hayotiy obrazlar - Dilorom, kelinchak, Tank-34, Baxrixon orqali ko'rsatdi. Shu sababli asar maktab darsliklarida o'rganilsa-da, uni his qilish uchun sinf xonasi shart bo'lmaydi. Aynan shu xususiyati bilan ijodkorning bu dostoni oddiy "mavzuli she'r" dan farq qiladi. Ko'pgina asarlar muayyan voqea yoki g'oyaga bag'ishlanadi va o'sha voqea unutilgach, asar ham unutiladi. Ammo "Palatkada yozilgan doston" da zilzila faqat sahna, asosiy qahramon esa - inson. Inson o'zgarmaydi. Qo'rquvi ham, jasorati ham, xasisligi ham,

saxovati ham asrlar osha bir xil. Shuning uchun bu asar 1966-yilda ham, 2026-yilda ham bir xil to‘lqinlantirib o‘qiladi va har o‘qiganda, go‘yo birinchi marta o‘qiyotgandek his qilasiz o‘zingizni.

Ayniqsa, bugungi raqamli asrda, insonlar bir-biridan uzoqlashib, "virtual hamdardlik" bilan cheklanib qolayotgan bir paytda, dostonidagi oddiy insonlarning haqiqiy birdamligi yanada qimmatli tuyuladi. Ijtimoiy tarmoqlarda minglab kishiga "hamdardman" deb yozish oson, bir necha tugmalarni bosish orqali yetkazish mumkin. Lekin Diloromning atlas ko‘ylak uchun yig‘ib qo‘ygan pulini uzatishi bu tugma emas, bu vijdon. Asarda Erkin Vohidov aynan mana shu farqni ko‘rsatadi, va bu farq bugun ham, ertaga ham o‘z o‘quvchiga birdek ta‘sir qiladi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Dostonda tilning o‘zi ham alohida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Erkin Vohidov balandparvoz so‘z va murakkab metaforalardan qochadi. Uning tili - xalq tili, odamlar gapirganidek oddiy, lekin insonga chuqur ta‘sir eta oladigan kuchi bor. Dostonni o‘qir ekanmiz, shoirni nafaqat tasvirchi, balki ishtirokchi sifatida ko‘z oldimizga keltiramiz. U zilzilani chetdan kuzatmaydi, sinov ichida, xalq bilan birga yashaydi. Shu sababli dostonning har bir misrasida tabiiylikni, sof tuyg‘ularni his qilamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Palatkada yozilgan doston" - bu faqat 1966-yil Toshkent zilzilasi xotirasi emas. Bu insonning o‘ziga qaytishi, o‘z vijdonini tekshirishi uchun yozilgan asar. Erkin Vohidov fojia qoshida kim qochadi, kim qoladi, kim yig‘laydi, kim quradi - barchasini sahifalarga ko‘chirdi. Qahramonlari oddiy odamlar: ukrainalik ishchi, yosh kelin, qizaloq Dilorom, urushni unutilmagan temir mashina. Lekin aynan shu oddiy odamlar orqali shoir katta haqiqatni aytadi: **insoniylik minbarda emas, palatka ichida, ketmon sapida, bir parcha non ulashishda namoyon bo‘ladi.**

Bu doston vaqt o‘tsa ham eskirmaydigan asarlar qatoriga kiradi, chunki zilzila o‘tadi, shahar tiklanadi, lekin inson qalbidagi sinovlar davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. "Palatkada yozilgan doston". Toshkent, 1967.
2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. Normatov U. Erkin Vohidov ijodi haqida. Toshkent: Fan, 1998.
4. Toshqo‘rg‘onov T. 1966-yil Toshkent zilzilasi: tarix va xotira. — Toshkent: Sharq, 2006.
5. Xurshid Davron Kutubxonasi